

SIYOSIY TAHLILNING RASMIY SIYOSIY HUJJATLARNI SHAKILLANTIRISHDAGI O'RNI VA METODLARI

Mirzo Ulug`bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabalari

Xolmirzayeva Muhayyo Sardor qizi

Rashidova Mahliyo Baxtiyor qizi

Tursunaliyev Temur Doniyor o`g`li

Normaxmatov Otabek Hamza o`g`li

Annotatsiya: Ushbu maqolada rasmiy siyosiy hujjatlarni tayyorlash jarayonida siyosiy tahlilning qanday o`rin tutishi va qanday usullar bilan amalga oshirilishi ko`rib chiqilgan shuningdek, O`zbekistonda siyosiy tahlil metodologiyasini rivojlantirish tizimli tadqiqotlarni yo`lga qo`yish va tahliliy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilish borasidagi jarayonlar ham maqolada o`z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Siyosiy tahlil, rasmiy hujjatlar, metodologiya, kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, prognozlash, strategik rejalashtirish.

Annotation: This article examines the role of political analysis in the preparation of official political documents and the methods by which it is carried out. Additionally, the article reflects on the processes underway in Uzbekistan regarding the development of political analysis methodology, the establishment of systematic research and the application of analytical approaches in practice.

Keywords: Official documents, methodology, content analysis, comparative analysis, statistical analysis, forecasting, strategic planning.

Rasmiy siyosiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra murakkab, ko'p bosqichli va chuqur ilmiy yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Bu jarayonda siyosiy tahlilning o'rni nihoyatda muhim bo'lib, u hujjatning mazmunan to'g'ri, huquqiy jihatdan asosli, ijtimoiy manfaatlar bilan uyg'un bo'lishini ta'minlaydi. Siyosiy tahlil nafaqat mavjud muammoni yoritib, uni tushuntiradi, balki ishlab chiqilayotgan qarorlarning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini oldindan ko'ra olish imkonini ham beradi. Shu bois, har qanday rasmiy hujjat – qonun loyihasi, qaror, dastur, konsepsiya yoki strategiyalarning sifat darajasi aynan tahlilning chuqurligiga bog'liq.

Siyosiy tahlilning rasmiy hujjatlarni shakllantirishdagi o'rni

Siyosiy tahlil rasmiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida markaziy o'rin tutadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, siyosiy tahlil quyidagi asosiy vazifalarni bajarish orqali hujjatlarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi:

Birinchiidan, siyosiy tahlil mavjud muammolarni aniqlash va ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish imkonini beradi. Bu jarayonda tahlilchilar turli manbalardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi va muammoning mohiyatini ochib beradi. Rasmiy hujjatlarning sifatli bo'lishi aynan shu dastlabki tahlil bosqichiga bog'liq.

Ikkinchiidan, siyosiy tahlil muqobil yechimlarni ishlab chiqish va ularni solishtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Tahliliy tadqiqotlar natijasida olingan xulosalar asosida hujjat loyihalarining turli variantlari tayyorlanadi va ulardan eng maqbul tanlanadi.

Uchinchiidan, siyosiy tahlil qabul qilingan qarorlarning mumkin bo'lgan oqibatlarini prognoz qilish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, strategik ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy davlat boshqaruvida siyosiy tahlil strategik hujjatlarni shakllantirishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-dekabrda "Mamlakatning ijtimoiy, siyosiy

va iqtisodiy rivojlanish sohalaridagi strategik tahlil va tadqiqot qilish faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi tizimli yondashuvning yaqqol ifodasidir. Mazkur qarorga muvofiq, tahliliy va tadqiqot tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish bo'yicha uzoq muddatli strategik tahliliy hujjatlarni hamda mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga oid takliflarni muntazam ravishda O'zbekiston Prezidentiga kiritib borish;
- Ilmiy va amaliy tadqiqotlarni tashkil qilish bo'yicha buyurtma berish tizimini joriy qilish;
- Yillik strategik yo'nalishdagi tadqiqotlarni ishlab chiqish va belgilash, ularning natijalaridan mamlakatni yanada isloh qilishda ustuvor yo'nalishlarni belgilash jarayonida foydalanish;
- Mamlakatning ichki siyosiy rivojlanish masalalari bo'yicha amaliy va obyektiv ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida sotsiologik tadqiqot ishlarini o'tkazilishini rejalashtirish va tasdiqlash;
- Tahliliy va tadqiqot tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan, zaruriyatga ko'ra yangi markazlarni tashkil qilish, amaldagilarni qayta o'zgartirish va ixtisoslashtirish bo'yicha takliflar kiritish;
- Tahliliy faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlash, shu jumladan, xorijiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda tahliliy tuzilmalar xodimlarini malakasini oshirish kurslarini tashkil qilish;
- Maqbul takliflar va ko'p variantlilik prinsipi asosida turli sohalarni rivojlantirish senariylarini ishlab chiqish maqsadida davlat tahlil markazlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining mustaqil va xorijiy tahliliy tuzilmalar va ekspertlari bilan hamkorligini ta'minlovchi yagona platformani yaratish;
- Statistika ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning yagona standartlarini ishlab chiqish, shuningdek, qator vazirlik va idoralarning har oy yangilanadigan

ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan idoralararo integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

- Asosiy idoralarning tadqiqot markazlari va yig'ma axborot-tahlil bo'linmalari faoliyatining har yillik rejalariga takliflar kiritilishi va ijrosini tashkil etish.

Kengash tarkibida quyidagi yo'nalishlar uchun ma'sul bo'lgan ishchi guruh tashkil etildi:

- Xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik;
- Davlat va jamiyat qurilishi;
- Ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish
- Tashqi siyosat va xalqaro hamkorlik;
- Strategik rejalashtirish va hududlarni rivojlantirish
- Iqlim o'zgarish va suv tanqisligi masalalarini o'z ichiga olgan ekologik kun tartibi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi kabi uzoq muddatli dasturlarning qabul qilinishi, ularning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlashni taqozo etmoqda. Bu esa siyosiy tahlil metodlarini chuqur o'rganish va ularni amaliyotga joriy etish masalasini dolzarb qiladi. Siyosiy tahlilsiz qabul qilingan hujjatlar subyektiv qarorlar bo'lib qolish xavfi ostida bo'lib, ular kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Siyosiy tahlil va rasmiy hujjatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik murakkab va ko'p qirrali xususiyatga ega. Siyosiy tahlil rasmiy hujjatlarni shakllantirish jarayonida bir necha muhim funksiyalarni bajaradi. Siyosiy tahlilning eng muhim vazifalaridan bir-jamiyatdagi dolzarb muammolarni aniqlash va ularni davlat siyosatining kun tartibiga kiritishdir. Tahlilchilar mavjud statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rovnomalar, ekspert baholashlari va ommaviy axborot vositalari materiallarini o'rganish orqali

¹https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_rivojlanishining_strategik_tahlili_doimiy_asosda_utkazil_adi

jamiyatdagi "og'riqli nuqtalar"ni aniqlaydilar. Aniqlangan muammolar ularning ahamiyati, ko'lami va keskinligiga qarab tartiblanadi hamda muammolarning sabab-oqibat bog'liqliklari tahlil qilinadi. Qabul qilinayotgan har qanday rasmiy hujjat jamoatchilik, ekspertlar va xalqaro tashkilotlar oldida asoslangan bo'lishi talab etiladi. Siyosiy tahlil aynan shu asoslilikni ta'minlaydi. Tahliliy ma'lumotlar, statistik ko'rsatkichlar, ilmiy dalillar va xorijiy tajriba namunalari hujjatning "nima uchun aynan shunday qabul qilinayotgani"ni izohlaydi. Siyosiy tahlil nafaqat hujjatni ishlab chiqish, balki uni amalga oshirish jarayonida ham muhim rol o'ynaydi.

Siyosiy tahlilning eng muhim vazifalaridan biri -jamiyatdagi dolzarb muammolarni aniqlash va ularni davlat siyosatining kun tartibiga kiritishdir. Jumladan Ozarbijonlik siyosatshunos, professor Hikmat Babaoğluning "Siyosiy tahlil va prognozlashtirish darsligida ta'kidlanishicha, siyosiy tahlilning informatsion-tadqiqot vazifasi aynan siyosiy voqelik haqida ma'lumot to'plash, qayta ishlash va tizimlashtirishdan iborat. Mazkur funktsiya siyosiy tizimning "sezgirlik" mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, jamiyat ehtiyojlari va davlat siyosati o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'taydi.

Rasmiy siyosiy hujjatlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan metodlar so'ngi yillarda sezilarni darajada rivojlandi. An'anaviy sifatli yondashuvlar, zamonaviy miqdoriy va hisoblash usullari ham boyitilmoqda.

Rasmiy siyosiy hujjatlar tahlilining asosiy metodlari

Siyosiy tahlilning rasmiy hujjatlarni shakllantirishda qo'llaniladigan metodlari xilma-xil bo'lib, ularni bir necha asosiy guruhlariga ajratish mumkin.

Hujjatlarni mazmuniy tahlil qilish (kontent-analiz)

Kontent-tahlil siyosiy matnlarni o'rganishda eng keng tarqalgan va metodologik jihatdan puxta ishlab chiqilgan usul hisoblanadi. Uning mohiyati matn va matnlar majmuasini miqdoriy-sifat jihatidan tahlil qilishdan iborat. Siyosiy tahlilda kontent-analiz yordamida rasmiy hujjatlarning mazmuni, ulardagi asosiy g'oyalar va

yondashuvlar aniqlanadi. Bu metod, ayniqsa, turli davrlarga oid hujjatlarni qiyosiy tahlil qilishda samarali hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil va uning turlari

Qiyosiy tahlil siyosatshunoslikning muhim

sohasi bo'lib, u turli mamlakatlar, mintaqalar yoki davrlardagi siyosiy hodisalarni solishtirish imkonini beradi.

Qiyosiy tahlil- bu dunyodagi turli siyosiy tizimlarni tizimli o'rganish va taqqoslashdir. U turli siyosiy tizimlar nima uchun o'xshashlik yoki farqlarga ega ekanligini va ular o'rtasida rivojlanish o'zgarishlari qanday sodir bo'lganligini tushuntirishga intiladi. Qiyosiy tahlilning asosiy mazmuni shundan iboratki, u turli mamlakatlar, siyosiy institutlar yoki boshqaruv tizimlarini taqqoslash orqali ularning samaradorligi, ustunliklari va kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi. Shu orqali tadqiqotchilar va siyosiy qaror qabul qiluvchi subyektlar ma'lum bir tizim yoki siyosatning qanchalik muvaffaqiyatli ekanligini ilmiy asosda baholashlari mumkin.

Qiyosiy tahlilning mazmuni asosan tizimlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash, ularni shakllantiruvchi omillarni tushuntirish hamda umumiy qonuniyatlarni topish bilan bog'liq. Masalan, ikki yoki undan ortiq davlatning siyosiy boshqaruv modeli, iqtisodiy siyosati yoki ijtimoiy rivojlanish strategiyasi solishtiriladi. Natijada qaysi tizim muayyan sharoitda samaraliroq ishlashi, qaysi omillar barqaror rivojlanishga olib kelishi yoki qaysi qarorlar kutilgan natijani bermasligi aniqlanadi. Shunday qilib, qiyosiy tahlil nafaqat mavjud vaziyatni tushuntiradi, balki kelajakdagi siyosiy yoki boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli qiyosiy tahlil rasmiy qarorlar qabul qilishda muqobil variantlarni baholash, ehtimoliy natijalarni prognoz qilish va eng samarali strategiyani tanlash imkonini beruvchi muhim ilmiy metod hisoblanadi. Bu metod siyosiy boshqaruvning samaradorligini oshiradi, xatolar ehtimolini kamaytiradi va davlat siyosatini yanada asosli hamda tizimli tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Статистик тahlil — bu turli ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni sonli ko'rsatkichlar orqali o'rganish, ularni matematik usullar yordamida qayta ishlash va ilmiy xulosalar chiqarish jarayonidir. Ushbu metod ayniqsa Statistika, Siyosiy tahlil, Iqtisodiyot va Sotsiologiya sohalarida keng qo'llaniladi. Statistik tahlilning asosiy vazifasi katta hajmdagi ma'lumotlarni tizimlashtirish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishdan² iborat.

Статистик tahlil jarayonida avvalo ma'lumotlar yig'iladi, ular tartibga solinadi va turli matematik formulalar yordamida qayta ishlanadi. Natijada ma'lumotlarning o'rtacha qiymati, o'zgarish darajasi, taqsimoti va dinamikasi aniqlanadi. Bu esa muayyan jarayonlarning qanday rivojlanayotganini, qaysi omillar ularning o'zgarishiga ta'sir qilayotganini aniqlash imkonini beradi. Statistik tahlilning muhim xususiyati shundaki, u subyektiv fikrlarga emas, balki aniq raqamlar va faktlarga asoslanadi.

Статистик tahlilning qo'llanilish turlari bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, tasviriy (deskriptiv) statistik tahlil mavjud bo'lib, u ma'lumotlarni umumlashtirish va ularning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bunda o'rtacha qiymat, foizlar, taqsimot ko'rsatkichlari va grafiklar orqali jarayonning umumiy holati tasvirlanadi. Bu usul ko'pincha ijtimoiy so'rovlar yoki statistik hisobotlarni tahlil qilishda qo'llanadi.

Ikkinchi muhim tur - taqqoslovchi statistik tahlil hisoblanadi. Bu usulda turli davrlar, hududlar yoki guruhlar o'rtasidagi ko'rsatkichlar solishtiriladi. Masalan, turli davlatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari yoki saylov natijalari qiyosiy tarzda tahlil qilinishi mumkin. Bunday tahlil orqali rivojlanish darajasi, farqlar va umumiy tendensiyalar aniqlanadi.

² Charles C. Ragin. The Comparative Method: Moving Beyond Qualitative and Quantitative Strategies. – Berkeley: University of California Press, 19

Yana bir muhim yoʻnalish - korrelyatsion statistik tahlil boʻlib, u turli omillar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni aniqlashga qaratilgan. Masalan, iqtisodiy rivojlanish bilan aholi bandligi darajasi oʻrtasidagi bogʻliqlik yoki taʼlim darajasi bilan siyosiy faollik oʻrtasidagi munosabat statistik usullar orqali oʻrganiladi. Bu usul sabab-oqibat munosabatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Statistik tahlilning yana bir turi dinamik (vaqt boʻyicha) tahlil hisoblanadi. Bu metod muayyan jarayonlarning vaqt davomida qanday oʻzgarib borishini oʻrganadi. Masalan, aholi sonining oʻsishi, iqtisodiy koʻrsatkichlarning yillik oʻzgarishi yoki siyosiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari statistik maʼlumotlar asosida tahlil qilinadi. Bu usul kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilishda muhim rol oʻynaydi.

Statistik tahlil rasmiy qarorlar qabul qilish jarayonida ham juda katta ahamiyatga ega. Davlat boshqaruvi tizimida turli ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar haqida toʻplangan statistik maʼlumotlar asosida siyosiy va strategik qarorlar ishlab chiqiladi. Masalan, davlat budjetini rejalashtirish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yoki ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda statistik tahlil natijalaridan foydalaniladi. Bu esa qarorlarning ilmiy asoslangan, aniq va samarali boʻlishini³ taʼminlaydi.

Asosiy yoʻnalishlari

Deskriptiv statistika - bu mavjud maʼlumotlarni yigʻish, tartibga solish va ularni umumlashtirish orqali hodisaning umumiy holatini tasvirlashga qaratilgan statistik yoʻnalishdir. Bu usul tadqiqotning boshlangʻich bosqichida qoʻllaniladi va maʼlumotlarning asosiy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Deskriptiv statistikada quyidagi asosiy koʻrsatkichlar hisoblanadi:

- O'rtacha qiymat (mean) - ma'lumotlarning umumiy o'rtacha darajasini ko'rsatadi.
- Median - ma'lumotlar qatorining o'rtasida joylashgan qiymat.
- Moda e-ng ko'p takrorlanadigan qiymat.
- Tarqoqlik ko'rsatkichlari - dispersiya va standart og'ish kabi ko'rsatkichlar orqali ma'lumotlarning qanchalik tarqalganini aniqlaydi.

Strukturaviy tahlil va pragnozlashtirish metodlari – Amerikalik siyosatshunos va tahlilchi professor Uilyam N. Dann tomonidan ishlab chiqilgan strukturaviy muammo tahlili siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida keng qo'llaniladi. Strukturaviy tahlil metodining mazmuni muayyan tizimni tashkil etuvchi elementlar, institutlar va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganishga asoslanadi. Bu usulda tizim alohida qismlarga ajratilib, har bir qismning funksiyasi va umumiy tizimga ta'siri tahlil qilinadi. Masalan, siyosiy tizimni o'rganishda davlat hokimiyati institutlari, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari va ularning o'zaro munosabatlari o'rganiladi. Strukturaviy tahlil orqali tizimning barqarorligi, samaradorligi va rivojlanish imkoniyatlari aniqlanadi. Shu sababli bu metod siyosiy jarayonlarni chuqur tushunish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga⁴ ega.

Strukturaviy tahlil rasmiy qarorlar qabul qilish jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Davlat organlari muhim siyosiy yoki iqtisodiy qarorlarni qabul qilishdan oldin tizimning ichki tuzilishini va undagi asosiy omillarni o'rganadilar. Bu esa qarorlarning real sharoitga mos kelishini, tizim ichidagi muvozanatni buzmasligini va boshqaruv samaradorligini oshirishini ta'minlaydi. Natijada strukturaviy tahlil siyosiy qarorlarning ilmiy asosda ishlab chiqilishiga yordam beradi. Bu metod besh bosqichdan iborat:

⁴ "Siyosatshunoslik: Versiyalar orasidagi farq." Vikipediya.

- Muammolarni tuzilmashtirish - siyosiy hujjatlar asosidagi asosiy muammolarni aniqlash va ularning tarkibiy qismlarini belgilash.
- Kutilayotgan natijalarni prognozashtirish qabul gilinadigan qarorlarning mumkin bo'lgan oqibatlarini oldindan baholash
- Muqobil variantlarni tavsiya etish - ma'lum muammoni hal etishning turli yo'llarini ishlab chiqish
- Natijalarni monitoring qilish - qabul gilingan qarorlarning amalga oshirilishini kuzatish
- Samaradorlikni baholash - siyosiy hujjatlarning amalga oshirilishi natijalari tahlil⁵ qilish.

Prognozlash metodlari esa mavjud ma'lumotlar va tahlillar asosida kelajakdagi jarayonlarni oldindan baholashga qaratilgan ilmiy usullar majmuasidir. Prognozlash siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy rivojlanishning ehtimoliy yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Bu metodlar orqali turli siyosiy qarorlarning kelajakdagi natijalari oldindan baholanadi va ehtimoliy xavflar yoki imkoniyatlar aniqlanadi. Shu sababli prognozlash strategik rejalashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Prognozlash jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Masalan, ekspert baholash metodi, statistik tahlil, modellashtirish yoki ssenariy tuzish usullari orqali kelajakdagi jarayonlar haqida ilmiy asoslangan taxminlar ishlab chiqiladi. Bunday prognozlar davlat siyosatini shakllantirish, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va rasmiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, strukturaviy tahlil va prognozlash metodlari siyosiy jarayonlarni chuqur tushunish va ularning kelajakdagi rivojlanishini oldindan baholash imkonini beradigan muhim ilmiy vositalardir. Bu metodlar yordamida davlat boshqaruvi tizimi yanada samarali tashkil etiladi, strategik qarorlar puxta asoslanadi va jamiyat rivojlanishining istiqbollari aniqroq belgilab olinadi.

⁵ Gabriel Almond. A Functional Approach to Comparative Politics. – Princeton University Press, 1966

Metodlarning qiyosiy tahlili va tanlov mezonlari.

Metodlar	Asosiy mohiyati	Afzalliklar	Cheklovlar	Qo'llanilish sohasi
Kontent tahlil	Matn tarkibidagi ma'lumotlarni ob'ektiv, miqdoriy tahlil qilish	Turli manbalarni solishtirish imkoniyati vaqt davomidagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin	Kontekstni to'liq hisobga olmaslik ma'no nozikliklari yuqotish xavfi kodlashtirishning subyektivligi	Partiya dasturlari, saylov materiallari, rasmiy hujjatlar
Diskurs tahlil	Til orqali ma'no yaratish mexanizimlar, hokimyat munosabatlari va mafkuraviy pozitsiyalarini o'rganish	Yashirin manolarning anglash hokimyat munosabatlarini ochib beradi.	Subyektivlik umumlashtirishning murakkabligi tadqiqotchidan yuqori malaka va katta vaqt talab qiladi	Diplomatik hujjatlar, siyosiy nutqlar.
Qiyosiy tahlil	Turli siyosiy tizimlar insitutlar va jarayonlarni solishtirish orqali o'xshashlik va farqlarni aniqlash	Nazariy umumlashmalar yaratish siyosiy insitularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish	Milliy xususiyatlarni hisobga olish zarurati solishtirish mumkin bulmagan elementlat ko'pligi	Xalqaro tadqiqotlar, mintaqaviy tahlillar
Statestik tahlil	Miqdoriy ma'lumotlarni matematik-statistik usullar bilan qayta ishlash va	Prognoz qilish imkoniyatining aniq sonli ko'rsatkichlari bilan ifodalanishi	Sifatli ma'lumotlarni tanlolmaslik va o'lchovda xatoliklar	Ijtimoiy kayfiyatlar, saylov statistikasi

	qonunyalarni aniqlash			
--	--------------------------	--	--	--

Tahlil Metodi O'zbekistonda Qo'llanilish Amaliyoti Ahamiyati va Natijalar

Ta'sirni baholash (RIA) UNDP bilan hamkorlikda "Qonun hujjatlarining ta'sirini baholash bo'yicha amaliy qo'llanma" ishlab chiqilgan. Unda foyda-xarajat tahlili, standart xarajatlar modeli kabi usullar yoritilgan. Yangi qonun loyihalarining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini oldindan baholash, eng samarali variantni tanlash imkonini beradi.

Ijtimoiy so'rovlar va monitoring Adliya vazirligi, NNTlar va "Ijtimoiy fikr" markazi hamkorligida aholi o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, qarorlar ijrosi va xalqning munosabatini o'rganish tizimi joriy etilgan. Hujjatlarning amaliyotda qanday ishlayotganini, aholining ularga munosabatini aniqlash, ijtimoiy qabul qilinish darajasini o'lchash imkonini beradi. Jamoatchilik nazorati "Jamoatchilik eshituvlari", "jamoatchilik monitoringi" tizimi joriy qilingan, fuqarolik jamiyati institutlari va OAVni jalb etish mexanizmlari yaratilgan. Hujjatlar ijrosining shaffofligini oshirish, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ta'minlash.

Hujjatlar ijrosining 4 bosqichli tizimi Loyiha bosqichida rejalashtirish, ijroni tashkil etish va ko'maklashish, baholash va nazorat qilish bosqichlaridan iborat tizim joriy etilgan. Hujjatlarning nafaqat ijrosi, balki natijadorligiga ham e'tibor qaratish, samaradorlikni tizimli baholash imkonini beradi.

Konstitutsion-huquqiy tahlil Prezident murojaatnomalari, "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" va Davlat dasturlari kabi hujjatlar ilmiy jihatdan tahlil qilinmoqda. Strategik hujjatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, ularning izchilligi va uzviyligini ta'minlanmoqda.

Tahlil metodlari bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liq holda qo'llanilganda samarali natija beradi:

1. Miqdor va sifat metodlarining uyg'unligi: Mahalliy hokimiyat qarorlarini tahlil qilish tadqiqotida aniqlanganidek, qaror qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar (ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, moliyaviy resurslar, rahbarlik sifati, axborot tizimlari) bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, ularni kompleks o'rganish talab etiladi.

2. VUCA konsepsiyasi va qaror qabul qilish: Noaniqlik (Volatility), ishonchsizlik (Uncertainty), murakkablik (Complexity) va ziddiyatlilik (Ambiguity) sharoitida qaror qabul qilish jarayoni alohida tahlil metodlarini talab qiladi. Bu esa prognozlash va senariy tahlili kabi metodlarning ahamiyatini oshiradi.

3. 3. Xalqaro reytinglar bilan uyg'unlik: Siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslar metodologiyasidan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekistonning ushbu reytinglardagi o'rniga ehtimoliy ta'sirini baholash amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekiston misolida ko'rinadiki, strategik tahlil va tadqiqot faoliyatini tashkil etishning tizimli mexanizmlari yaratilmoqda.

Muvofiqlashtiruvchi kengashlar, ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot tuzilmalari va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlari siyosiy tahlilning rasmiy hujjatlarni shakllantirishdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Siyosiy tahlil metodlarining takomillashuvi va ularning amaliyotga joriy etilishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, qabul qilinadigan qarorlarning ilmiy asoslanganligini ta'minlash va strategik rejalashtirish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu boisdan, siyosiy tahlil metodologiyasini rivojlantirish va uni rasmiy hujjatlarni shakllantirish amaliyotiga integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda siyosiy tahlil metodlarining qo'llanilishi

O'zbekistonda so'nggi yillarda siyosiy tahlil metodologiyasiga qiziqish ortib bormoqda.

Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti (IXTI) tomonidan o'tkazilgan seminarlar va treninglar bu boradagi tizimli yondashuvning yaqqol ifodasidir.

Hujjatlarni tahlil qilish bo'yicha treninglar

2025-yil aprel oyida IXTI tomonidan Jahon bankining MUNIS granti doirasida o'tkazilgan ikki kunlik seminarda siyosiy tadqiqotlar metodologiyasining amaliy jihatlari o'rgatilgan. Birinchi kun xalqaro munosabatlarda hujjatlarni tahlil qilishga bag'ishlanib, ishtirokchilar mazmun va diskurs tahlilini, nazariy asoslarni va asl manbalar asosida ishonchli tahlil yaratish san'atini o'zlashtirgan.

Seminarning ikkinchi kunida e'tibor miqdoriy yondashuvlarga qaratilgan bo'lib, ishtirokchilar SPSS va Stata dasturlaridan foydalangan holda so'rovnomalarni ishlab chiqish, gipotezalarni tekshirish va ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish bo'yicha amaliy mashqlar bajargan. Ma'lumotlar etikasiga bag'ishlangan alohida bo'lim O'zbekistondagi islohotlar sharoitida maxfiy ma'lumotlarga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish masalalariga qaratilgan.

Siyosiy tahlil metodlari so'nggi yillarda jadal rivojlanib, an'anaviy sifat tahlilidan tortib sun'iy intellektga asoslangan avtomatik tahlil usullarigacha bo'lgan keng spektrni qamrab olgan. Kontent-tahlil, diskurs-tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va avtomatik matn tahlili kabi metodlar siyosiy hujjatlarni shakllantirish, tahlil qilish va baholash jarayonlarida muhim vosita hisoblanadi.

Metod tanlovi tadqiqot maqsadi, ma'lumotlar xususiyati, mavjud resurslar va tadqiqotchi malakasiga bog'liq. Zamonaviy siyosiy tadqiqotlarda turli metodlarning kombinatsiyasi (triangulyatsiya) eng samarali yondashuv hisoblanadi.

O'zbekistonda siyosiy tahlil metodologiyasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajriba va ilg'or metodlarni o'zlashtirish, mahalliy kontekstga moslashtirish va amaliyotga joriy etish siyosiy tahlil sifatini

⁶ Institute for Advanced International Studies. "IXTI MUNIS tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan loyiha yordamida ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirmoqda." 2025.

oshirish, qabul qilinadigan qarorlarning ilmiy asoslanganligini ta'minlash va strategik rejalashtirish samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida siyosiy tahlil rasmiy hujjatlarni shakllantirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Turli tahlil metodlari hujjatlarning ilmiy asoslanganligini, samaradorligini va jamiyat ehtiyojlariga mosligini ta'minlaydi. Kontent, diskurs, statistik va qiyosiy tahlil metodlari har bir bosqichda qaror qabul qilishni to'g'ri va ob'ektiv asoslashga xizmat qiladi. Avtomatik tahlil va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar esa ma'lumotlarni tezkor va samarali qayta ishlash imkonini beradi. Shu bilan birga, O'zbekistonda siyosiy tahlil metodologiyasini rivojlantirish va ularni amaliyotga joriy etish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va qarorlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari:

Mamlakatni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish sohalaridagi strategik tahlil va tadqiqot qilish faoliyatini samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, № PQ-467 qabul qilingan sana: 31.12.2024. kuchga kirish sanasi 02.01.2025.

Kitob, monografiya va risolalar

1. Alan Bryman. Social Research Methods. – Oxford: Oxford University Press, 2012.
2. Norman Nie, Sidney Verba va John Petrocik. The Changing American Voter. – Harvard University Press, 1979.
3. AYDOĞAN ÜNAL, Betül. "Otomatik metin analizi yöntemlerinin siyaset biliminde kullanımı." Hitit Sosyal Bilimler Dergisi, 2023, № 1, s. 190-208.
4. Mamatov, N., Nuritdinov, N. "Matnni tahlil qilish bo'yicha ilg'or tajribalar." 2025.

5. Andy Field. *Discovering Statistics Using SPSS*. – London: Sage Publications, 2013
- Andy Field. *Discovering Statistics Using SPSS*. – London: Sage Publications, 2013
6. Gabriel Almond. *A Functional Approach to Comparative Politics*. – Princeton University Press, 1966